

**O'ZBEK SHEVALARI TIZIMIDA MINGBULOQ SHEVASINING O'RNI****Musurmon Usmonov Mamurali o'g'li**

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0003-5890-9540>**e-mail:** musulmonusmonov1989@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается отличие литературного языка от диалекта, соотношение минбулокского диалекта с узбекскими диалектами и узбекским литературным языком. Представлены выводы, сделанные в результате анализа примеров.

Ключевые слова: диалект, говор, ареал, этнос, этнолингвистические, ментальные лингвокультурные единицы, гибридизация, метизация, этнический компонент, этногенетическая ассимиляция, этнический слой, этнотопоним, топографическое положение.

Abstract: The article examines the difference between the literary language and the dialect, the relationship of the Minbulok dialect with the Uzbek dialects and the Uzbek literary language. The conclusions drawn from the analysis of examples are presented.

Key words: dialect, area, ethnic group, ethnolinguistic processes, mental linguocultural units, hybridization, cross-breeding, ethnic component, ethnogenetic assimilation, ethnic layer, ethnotoponym, topographic location.

Yaxshi bilamizki, adabiy til tarixan shakllangan, soʻz ustalari – yozuvchilar, shoirlar, maʼrifat kishilari, tilshunoslar, suhandonlar tomonidan qoʻllanish va voqelanishi ravshanroq qayta ishlangan, nutqiy sayqal berilgan, meʼyoriy va jamiyatda kishi faoliyatining barcha sohalari bilan bogʻlangan badiiy, publitsistik-ommabop, ilmiy va rasmiy til hisoblanadi.



Hozirgi o'zbek adabiy tili O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiladigan o'zbek xalqining milliy tilidir. Nafaqat O'zbekistondagi, balki Qoraqalpog'iston, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirgiziston, Tojikiston, Afg'oniston, Uyg'uriston, Turkiya Respublikalari va boshqa bir necha mamlakatlar zaminida yashovchi o'zbek millatiga mansub aholining ham milliy ona tilidir.

Hozirgi milliy til – umumxalq tilining eng yuqori shakli bu o'zbek adabiy tilidir. Jonli til bo'lgan sheva, lahja, dialektlar ma'lum hududdagi aholining muloqot-so'zlashuv, axborot almashinuv tilidir. Shevalarning yozma shakli mavjud bo'lmaganligi, ma'lum me'yorga tushirilmagani, hududiy qolip va qoidalar orqali amaldaligi sababli qo'llanish doirasi cheklanadiki, bu esa, adabiy til bilan shevalarning farqini ko'rsatib beradi. Bundan ma'lum bo'ladiki, umumxalq tili ikki tarmoqqa asoslanadi: birinchisi, adabiy til bo'lib, ikkinchisi hududiy amal qiluvchi jonli til (sheva)lardir.

Jonli til – shevalar tarixiy yodgorlikdir. Shevalarda saqlanib qolgan ayrim so'z va shakllar o'zbek tili tarixi uchun ishonchli, muhim manba sanaladi. O'zbek shevalaridagi fonetik, leksik va grammatik unsurlar adabiy tilimiz tarkibiga kiradi va uning lug'atini, grammatik qurilishidagi jarayonlarni, konstruksion qurilishidagi milliy jihatlarni boyitadi. Agar adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi o'zaro munosabat jarayonlari amalga oshmasa, ular to'xtovsiz aloqada bo'lmasa, adabiy til lahja va shevalarga, lahja va shevalar adabiy tilga ta'sir etib turmasa, bir-biridagi xususiyatlarini yaqinlashtirib bormasa, hullas, ular bir-birlari bilan oziqlanmasa, har qanday milliy va adabiy til taraqqiyotga emas, tanazzulga yuz tutadi.

Adabiy tilimizda ayrim narsa, belgi, miqdor, holat va harakatlarning, turli hodisalarning nomlari adabiy til va lug'atlarda mavjud bo'lmaydi. Masalan, Mingbuloq, umuman, Namangan shevalari areallarida qo'llanuvchi qarluq lahjalaridagi lovak (yigit va qizlarning peshonasiga tushib turadigan soch tutami; rus tilida chyołka), qipchoq lahjalaridagi qoqos (narsa buyumning hech kim va hech narsaga halaqit bermaydigan holda qo'yib qo'yiladigan joy nomi), ting'iliqli (o'zagi tin+g'i, tinch, xotirjam, o'ziga xos qulaylikda ma'nosini ifodalaydi) so'zlarini olaylik, ular adabiy tilimizda uchramaydi, lekin lahja va shevalarda mavjud. Adabiy tilda esa bir so'z bilan ifodalanadigan bunday til



birliklari uzun gap shaklidagi konstruktsiyalar bilan ifoda qilinadi. Nega bunday birliklarni ikkilanmay adabiy tilga kiritish mumkin emas, bularga nimalar monelik qiladi?

Mingbuloq mahalliy tili bo'lgan shevalarida (ular yig'ilib milliy tilni hosil qiladi) o'mgan (inson va hayvonlarning ko'krak qismi), tumsa (farzand ko'rmaydigan ayol), madda (mahmadona, ko'p gapiradigan odam), moloq//yaloq (yuzlari, kiyimlari iflos odam), kashmiri (gap bilan uddaburonlik qiluvchi ayol), ho'ppa (to'lacha, semiz odam), mirtaymoq//kirtaymoq (charchagan kishi holati: O'zi mirtayib, ko'zlari kirtayib ketgan), arvak (ozg'in odam), do'na(r)moq (adabiy tilda do'ndirmoq), to'plab, yig'ishtirib, (joy-joyiga qo'ymoq) em (shifo), o'poq (kalta), so'poq (uzun, uzunchoq), olim (biror faoliyatdan keladigan foyda, kirim), berim (biror faoliyatdan keladigan to'lov, chiqim), kiyit (turli marosimlarda ayollarga, erkaklarga beriladigan kiyimlar, mato, ro'mol, chopon, to'n, belbog'lar, mahsi va kovushlar) kabi ko'plab leksik birliklar mavjudki, ularning yozma shakllarda qo'llanishi orqali milliy adabiy tilimizga olish mumkin, bunday birliklar orqali adabiy tilimizning boyib borishi shubhasiz.

Adabiy tilimiz lug'atlarida uchramaydigan ayrim so'z, atama va iboralarni adabiy tilga olib kirib, ularning faol qo'llanishini amalga oshirishda o'zbek yozuvchilarining mehnati katta samara beradi. Masalan, Mingbuloq shevasida yeb to'ymas, ochofat ma'nosini ifadalovchi ko'makay so'zini (Andijon shahri yaqinida Ko'makay nomi bilan ataluvchi katta qishloq ham bor) O'zbekiston xalqining akademik shoiri G'afur G'ulom o'zining “Shum bola” asarida quyidagicha qo'llaydi va shu orqali bu so'z adabiy tilimizdan o'rin oldi:

- Assalomu alaykum! - deb tortinibroq yuqori chiqdim. Hoji bobo yonidan joy berdi. Haligi nonlardan bittasini mening oldimga qo'ydi. Choy quyib berdi.
- Nonni ushat, choyni ich, qo'maqaylik qilmay yaxshi chaynab yeyaber, bolam. Hammasi o'zingniki, ha, shunaqa.

Yoki sheva arealida qo'llanadigan innaykeyin (adabiy tilda: undan keyin, undan so'ng) leksik birligini ham: “Sariboy bo'lis haligacha xo'jayinlarimning ichida eng Xudorgan badbaxti, ziqnasi edi. Uning oldiga bir ish bilan borsangiz, bo'lar-bo'lmas yerda “innaykeyin” deb so'raydigan odati bor edi. Ana shu “innaykeyin”ga javob topib bera



olmasangiz, onangizni Uchqo‘rg‘onda ko‘rasiz. Qamchi bilan yelkaga tushirib qolguvchi edi. Chunonchi, borsangiz-da, unga “qandil olma pishibdi”, deb aytsangiz, u sizga “innaykeyin”, deb savol beradi. Siz albatta: “Shu pishgan olmani terish kerak”, deysiz. Yana Xudo qarg‘agan “innaykeyin”, deydi. Xayr, “Sotish kerak”, deysiz. Yana “innaykeyin”, deb so‘rab qoladi. Vaholanki, shu yerda gapning o‘zi tamom. “Innaykeyin” degan savolga hech hojat yo‘q” tarzida milliy va mahalliy bo‘yoqlar orqali qo‘llagan va adabiy tilning boyligiga aylanib O‘zbekistonning barcha sheva areallari vakillari bu so‘zning ma’nosini aniq anglay oladilar.

Albatta, bu fikrimizdan badiiy asarlarda qo‘llanilgan dialektizmlar bir kun kelib adabiy tilda muqim va yetakchi o‘rin tutadi degani emas. Badiiy adabiyot tili umuman keng qamrovligi esa hammamizga ma’lum.

Badiiyat tili umumxalq tili taraqqiyot qonunlariga asosida kechadi, matbuot va ommabop, ilmiy va rasmiy tillar qisman bo‘lsa ham adabiy tilning so‘zlashuv tili hisoblangan jonli tilga bo‘ysunadi.

Mingbuloq shevasining o‘zbek shevalari va o‘zbek adabiy tili bilan munosabati masalalari yoritilayotganda, albatta, milliy tilimiz rivojlanishi va uning taraqqiyoti bosqichlari davridagi ko‘plab tarixiy jixatdan til unsurlarni o‘zida mujasamlashtirganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Albatta bu lingvistik jarayon mamlakatimizdagi barcha shevalarga xos xususiyatdir. Masalan, fonetik va fonologik jihatdan eng qadimgi turkiy til (V asrgacha) unsuri bo‘lgan ng (ŋ) fonemasining qattqlik va yumshoqlik, ingichka va qalinlik belgilarini, qadimgi turkiy adabiy til unsurlaridan (V-X asrlar) lab-lab v (w) tovushini aslidek saqlaganligini, eski turkiy adabiy tildagi (XI asrdan XIV asrning yarmigacha) turkiy tillardagi “y” va “j” lashishni to‘liq asrayotganligini, (jamin – yamin, yur – jur, yung – jun kabi bir qancha leksik birliklarda), eski o‘zbek adabiy tilidagi (XIV asrning II yarmidan XX asrning boshlarigacha) deyarli ko‘plab fonetik, leksik va grammatik shakllarni va hozirgi o‘zbek adabiy tilida yuqorida zikr etilganidek tilimizning tarixiy unsurlarini o‘zida asrab, ulardan sheva areali vakillari o‘z nutqlarida iste’mol qilib to‘liq foydalanib kelishmoqda.



AVVALO, XALQ MILLIY TILI VA UNING SATHLARI BIRLIKLARI FAQAT O‘Z TIL IMKONIYATLARI ASOSIDA DUNYOGA KELADI SO‘NGRA TARIXNING TURLI DAVRLARIDAGI O‘ZGA XALQLAR BILAN IQTISODIY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY VA MADANIY ALOQALAR, MIGRATSION JARAYONLAR ORQALI METISIATSIYA VA GIBRIDIZIATSIYA HODISALARI ASOSIDA TIL BIRLIKLARIDAGI UNING UNSURLARI O‘ZGARIB BORADI. XALQ O‘Z EHTIYOJI UCHUN O‘ZIGA ENG QULAYINI TANLAYDI VA NOQULAY VARIANTLARINI ISTE’MOLDAN CHIQRADI.

Mingbuloq sheva arealidagi sheva sathlari tarixiy taraqqiyoti davrlarini kuzatsak, o‘zlashma til unsurlarining, ayniqsa ijtimoiy hayot tarziga eng tez va shiddat bilan kirib kelish xususiyatiga ega bo‘lgan leksik birliklarning ko‘p sonli ekaniga guvoh bo‘lamiz.

Albatta, o‘zlashgan so‘z va lisoniy shakllar turli davrlarda turlicha ijtimoiy sabablar bilan shevaga o‘zlashgan. Shuning uchun ham Mingbuloq sheva areali o‘z lug‘at tarkibidagi so‘zlar tarixiy shakllanishi jihatidan faqat turkiy tillarga xos emas, balki fors-tojik, arab, xitoy, mo‘g‘ul, uyg‘ur va rus tillaridan kirib kelgan va o‘zlashtirilgan.

Zero, jahonda hech bir til lug‘ati faqat o‘z so‘zlaridan tashkil topmaydi. Bilmizki, o‘zbek tili bugungi taraqqiyot davriga qadar juda ko‘p bosqichlarni bosib o‘tgan. Turkiy tillarning ilk paydo bo‘lish davrini qadimiy xun qabilalari davriga borib taqalishi¹ haqiqatga juda yaqin, deb hisoblaymiz. Sababki, bugungi o‘zbek xalq shevalari tarkibidagi juda ko‘plab fonetik, leksik va grammatik shakllarning asli o‘sha davrlarning unsiri ekanligiga shubha yo‘q.

Bundan tashqari, bizning fikrlarimizni haqiqiy turkparvar olim Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit” turk asarida keltirilgan fikrlar tasdiqlashi mumkin. Tilshunos olimlarimizning “Devon”da Koshg‘ariy tillarni ikki guruhga, ya’ni turkiy tilda gaplashuvchilar guruhiga hamda turkiy bo‘lmagan tillarda gaplashuvchilarga ajratadi. Birinchi guruhga arg‘u, to‘xsi, chigil, yag‘mo, qirg‘iz, qipchoq, o‘g‘uz tillarini kiritgan bo‘lsa, ikkinchi guruhga Bolosog‘un, Tiroz, Chin, Mochin, Xo‘tan, Tibet tillarini kiritadi. Bu hududlar albatta turkiy tillardan boshqa tillarda so‘zlashgan² kabi fikrlari biz bildirgan munosabatni yanada oydinlashtiradi. Bu shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy hodisa bo‘lgan til biz

¹ Rafiev A. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – Toshkent, 2004 yil. – B. 5-8 b.

² Abdurasulov Y. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2009 yil. – B. 9.



xohlaymizmi, xohlamaymizmi, o'z tarkibida ilk paydo bo'lishga asos bo'lgan shakllarni saqlaydi, bu yozdgorliklar xalqimiz shevalarida saqlanib keladi va adabiy tilimizdan ham o'rin egallaydi. Bolosog'un, Tiroz, Chin, Mochin, Xo'tan, Tibet tillarida so'zlashuvchilarning turkiy xalqlar bilan o'zaro munosabatlari orqali ularning tilidagi unsurlar turkiy shevalarga ham kirib kelib, o'rnashgan.

Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar o'zlashtirilgan tillarda o'z shaklini tarixan aslidek saqlay olishi qiyin masala, shuning uchun ham o'zlashtirilgan til lisoniy qonuniyatlari va talaffuz me'yorlari tabiatiga moslashtiriladi. Mingbuloq tumanidagi o'zlashmalarda ham bu hodisa yaqqol ko'zga tashlanadi.

Sheva tiliga lo'v – lab, no'vkar – navkar, gul, shoti - narvon, pehil – fe'l, sinip – sinf, hishsha – shisha, dozmol – dazmol, shiypon – shipon kabi so'zlar shunday singib ketganki, uning qaysi tildan kirib, o'zlashganligini ularni lisoniy tahlilga tortib aniqlashtirilmasa, dab-durustdan aytish qiyin.

O'zlashgan so'zlar tilimizdagi tovushlarga moslab, ma'no jihatdan o'zgartirilib qo'llanishi tabiiydir.

O'zlashgan so'zlarning yana bir jihati shundaki, ma'lum qismi davrlar o'tishi bilan u o'zlashtirib olingan asl tildagi ma'nosidan boshqa ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, ilm-fanga oid juda ko'p arabcha ilmiy atamalar 1940-yilgacha “internatsional” atamalar bilan almashtirildi. Bu harakat 1989-yilgacha, ya'ni o'zbek tiliga Davlat maqomi berilgunga qadar tez sur'atlar bilan davom etdi. O'zbekcha so'z va atamalarni almashtirish masalasiga, xususan, ruslashtirishga ijobiy masala, progress, deb qaralgan bo'lsa ham, aslida tilimiz milliy tabiatini yo'qotishga, uning o'zligini unutishga yaqinlashtirib qo'yilgan edi³.

Mingbuloq sheva areallarida ham o'zbek adabiy tiliga va boshqa o'zbek shevalarida bo'lganidek: a) xitoy; b) fors-tojik; v) arab; g) mo'g'ul; d) rus tillaridan kirib kelgan va o'zlashtirilgan o'ziga xos leksik birliklar qatlami sheva tabiatiga xos holda qo'llanishi mavjud.

a) xitoy tilidan o'zlashgan birliklar: Bu so'zlar o'zbek tili tarixi bilan shug'ullangan

³ Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. – Toshkent: O'zbekiston, 1994. – 120 b.



tilshunoslarimiz⁴ fikriga ko‘ra o‘zbek tili va uning shevalariga uyg‘ur tili orqali xitoy tilidan o‘zlashgan.

Xitoy tilida	O‘zbek adabiy tilida	Mingbuloq shevasida	Ma’no izohi
baytsay	jusay	jusay/yusay/ justak/yustak	xushbo‘y, ovqatga soladigan ko‘kat turi.
lyanmyan	lag‘mon	lag‘man / log‘mon	cho‘zilgan xamir
mayanti	manti	manti/monti	xamir orasiga go‘sht yoki qovoq (ba‘zan kartoshka) solib, tugib parda pishirilgan ovqat.
menper	manpar	mampar/mompor	xamirni tasmaga o‘xshatib yo mayda qilib kesilib pishiriladigan taom
xoshan	xonim	xonim	xamir ichiga go‘sht qiymasi yoki qovoq (ba‘zan kartoshka)li qiyma solib o‘rab bug‘da pishirilgan ovqat.
yuta	—	yutma/ yutoza/yuta tolchiq	xamirni yoyib, yog‘ surtib turli shakliga keltirib, bug‘da yoki yog‘da pishiriladigan ovqat
sacha	choy	chey/choy	o‘simlik va qaynoq suvga solib tayyorlanadigan ichimlik
chafan (cha – choy, fan – uy, xona)	choyxona	chayxana/choyxona	choy ichiladigan joy
sifan (si – bo‘yra, qamish, fan – uy, xona)	shiypon	shiypon/ayvon	ustiga qamish yoki bo‘yra yopilgan uy, chayla
lyanzi	-	lazi/lozi	garimdori pastasi
szyaban	javon	jovon	uy-ro‘zg‘or buyumi

⁴ Боровков А. К. Узбекский говоры Наманганской области // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Ташкент, 1963; Yudaxin K.K. O‘zbek va uyg‘ur xalqlari tillaridagi yaqinlik // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. 1958. – № 1. – B. 31-35; Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek adabiy tili va xalq shevalari. – Toshkent, 1962; Reshetov V.V. O‘zbek tilining qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. 1965. – № 5; Aliev A., Sodiqov Q. O‘zbek adabiy tili tarixidan. – Toshkent: O‘zbekiston, 1994. – 120 b.



siy	aralashtirmoq	chiylamoq/shiylamoq	O‘yin kartasini aralashtirmoq
jimbil	mantiqasqon	jimbil/qosqon	manti pishiradigan maxsusqozonning doira shaklidagi, yupqa qismi
chota	cho‘talchi	cho‘tal	qimor yutug‘idan qism oluvchi
chjadao (chja – qirqmoq, dao – pichoq)	jodi	jodi/chodi	Hayvonlarga o‘t qirqib beradigan moslama
shatang	narvon	shoti/shati	yuqoriga ko‘tarilish, chiqish uchun yog‘och yo temirdan qilingan moslama
taytay	atakchechak	tay-tay/atay- atay/attachechak	bolalarning dastlabki qadam bosishi, yurishi; shu paytida aytiladigan so‘z

Yuqorida aytib o‘tilgandek, uyg‘ur tili orqali xitoy tilidan o‘zlashgan barcha so‘zlar o‘zbek adabiy tili, xususan, Mingbuloq shevasida ham qo‘llanadi.

b) fors-tojik tilidan o‘zlashgan birliklar:

fors-tojik tilida	o‘zbek adabiy tilida	Mingbuloq shevasida	ma’no izohi
olufta	olifta	po‘rim	o‘ziga qarab, bashang kiyinuvchi odam
lagan	lagan	lagan, chorqi	ovqat suzadigan sayoz idish
poygah	poygak	paygak	Xonaga kirish joyi, ostona
paypoq	paypoq	poypaq	oyoqqa kiyiladigan turli matodan tayyorlangan anjom
chalchiq	ko‘lmak (to‘planib qolgan suv)	chilamiq	to‘planib qolgan suv
arzon	arzon	orzon	o‘z qiymatidan oz
bodom	bodom	bodom	bodom o‘simligining mevasi va daraxti
dastarxon	dasturxon	dastirxon	o‘zbeklarda ovqatlanayotganda ne‘matlar ostiga yozib qo‘yiladigan turli shakldagi mato
zardob	zardob	zardop	qatiqning suvi
sabzabot	sabzavot	sabzavot	turli dala va tomorqa ekinlari



kushxona	kushxona	qushxona	hayvonlar so'yladigan joy
degcha	degcha (qozon)	qozoncha	ostida o't yonadigan
tezob	tezob	tezap	o'ta tez
ustokor	ustakor	ustakar	salbiy xususiyat, xiylakor
pardoz	pardoz	pordoz-andoz	o'ziga qarash, yasan-tusan
xohish	xohish	bilgani	inson mayli
xazon	xazon	g'ozon	daraxtning to'kilgan sariq bargi
kulula	kulala, kulcha (g'ujanak)	kulcha	o'ralib, g'ujanak yotish yotish
chorvo (chor+poy)	chorva	charva/charava/chavra	Shog'-shabbadan qilingan to'siq
gardan	gardan	gardan	boshning yelkagacha bo'lgan orqa qismi
bolo	balo	bolo	xavf, ko'rgulik
gapxo'p	gapchil, mahmadona	mamadana/ mahmadana	Go'p gapiradigan, sergap kishi
go'r	go'r	go'r	go'r (er sathidan 1, 1,5 m gacha ko'tarilgan sun'iy kichik tepalik)
xunuk	xunuk	xunik	chiroyli bo'lmagan
ziyod	ziyod	ko'p, ortiq	miqdoriy me'yordan ko'proq
akka	hakka/zag'izg'on	hakka/olahakka	oq va qora rangdan iborat qush turi
mo'ychinak	mo'ychinak	mo'ychinak	mo'y (tuk)larni tanadan yulib tashlash uchun ishlatiladigan anjom

Tojikcha o'zlashmalar, nafaqat, Mingbuloq shevasiga, balki adabiy tilga yoki boshqa shevalara miqdor jihatdan ko'proq o'zlashgan. Buning sababi esa o'zbek va tojik xalqlari juda uzoq davrlardan beri yonma-yon yashab, bir-birlari bilan iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy munosabatda bo'lib hayot kchirishlaridadir. Tojik olimi B.F.G'afurovning takidlab yozishicha, o'zbek va tojik xalqlarining urtasidagi chinakam yaqinlik milodiy 6 asrdan boshlangan⁵. Albatta, ikki xalq o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va yaqinlik ularning tillariga, shevalariga ta'sir qilgan va tojik tili shevalariga ham o'zbek tilidan bir talay

⁵ Гафуров Б. Истории таджикского народа. – Москва: Наука, 1952. - С. 99-110.



grammatik shakllar, soʻzlar va iboralar oʻzlashgan. “Devor, darmiyon qoʻshnim”, “insof sari – baraka” kabi va boshqalar. Tojikcha oʻzlashmalar boshqa oʻzbek shevalarida boʻlgani kabi Mingbuloq shevasining barcha sathida kuzatiladi. Ular maishiy hayot, kasb-hunar, adabiyot-sanʼat, hayvonot dunyosi, oʻsimliklar, qishloq hoʻjaligi, tabiat hodisalari, vaqt, masofa, oʻrin-joy va boshqa juda koʻp sohalarga oid tushunchalar maʼnosini ifodalashga xizmat qilib kelmoqda.

v) arab tilidan oʻzlashgan birliklar:

arab tilida	oʻzbek adabiy tilida	Mingbuloq shevasida	maʼno izohi
atir	atir	atir	xushboʻy hid
kasal	kasal	kasal	salomatligini yoʻqotgan odam
duo	duo	duvo	ezgulik mazmundagi tilaklar
oyat	oyat	oyat/ayat	“Quron” kitobidan parchalar
kalima	kalima	kaliyma	musulmon kishining arab tilidagi gaplari
dimog	dimog	dimaq/dimah	insonning burun boʻshligʻi
ulfat	ulfat	ulpat	mustahkam boʻlmagan doʻstlik
soat	soat	sohot	vaqt koʻrsatkichi, asbob yoki oʻlchov birligi
hasib	hasib	hasip	ichakka maydalangan hayvon goʻshtini solib pishirilgan taom
qaror	qaror	qaror/qorol	bir toʻxtamga kelish
gʻayur	gʻayir	gʻayir	yomon niyatli, ichi qora kishi

v) moʻgʻul tilidan oʻzlashgan birliklar:

moʻgʻul tilida	oʻzbek adabiy tilida	Mingbuloq shevasida	maʼno izohi
narin	norin	norin/ingichka	yupqa holda pishirilgan xamirning mayda toʻgʻralgani
ax(a)	aka	aka	oiladagi katta oʻgʻil
ul, ulan	oʻgʻil	ul/uli/oʻ:li	oiladagi oʻgʻil farzand
xatan	xotin	xotin	ayol kishi, turmush oʻrtoq
xud(a)	quda	qudo	qarindoshlar, bir-biriga qiz bergan va qiz olgan oilalar



baz	boja	boja	bir oiladan qiz olgan kuyovlar
avisan	ovsin	ovsin	aka-ukalarning turmush o‘rtoqlari
uxuko(r)	ho‘kiz	xovkis/o‘kis	yirik uy hayvonning erkagi
bux	buqa	buqo	so‘yib sotish yoki nasl olish uchun maxsus boqilgan uy hayvonning erkagi
g‘unj	g‘unajin	hunojin	yetilib qolgan yoki bitta tuqqan irik uy hayvonning urg‘ochisi
ishig	echki	echki	uy hayvoni
bis	is (hid, bo‘y)	is/xisi	hidning yoyilishi, anqishi
magnay	manglay	mangley	inson boshining old qismi (peshona)
siyam	so‘m	so‘m	pul o‘lchov birligi
xar(a)	qora(mol)/yirik mol	katta/irik/ yirik	hajm-o‘lchov ma‘nosidagi so‘z
xo‘x	ko‘k rang, osmon	ko‘k rang, osmon	rang va osmon atamasi
xurud	qurt	qurut/qurit (hasharot)	mayda va uzunchoq shakldagi hasharot
bars	yo‘lbars	yo‘lvos/jo‘lvos	yirtqich, yo‘l-yul tusli hayvon
budaay	bug‘doy	bug‘doy/buday	boshqoli, donli o‘simlik va doni
arvoy	arpa	arpa	boshqoli, donli o‘simlik va doni
teerem	tegirmon	tegirman	Bo‘g‘doy va arpani un qiladigan mehanizm
tooson	to‘zon	to‘zon	tabiat hodisasi, tez pastlab esadigan shamol
bulag	buloq	buloh/bulaq	yer ostidan chiqadigan suv
chag‘	chog‘ (davr, payt), yaxshi	choq (payt, davr), (dimog‘i choq)	davr va xursanchilik holati
ert	erta	ertmanda/vohli	payt, sutkaning davri

Mingbuloq shevasi hamda o‘zbek adabiy tilidagi mo‘g‘ulcha birliklarning saqlanib, amalda foydalanib kelinayotganligini sababi shundaki, etnik jihatdan bu ikki xalqning ildizlari bir nuqtaga birlashishidir. Yuqorida aytib o‘tilganidek, eng qadimgi davrda hozirgi turkiy, mo‘g‘ul, tungus-manjur tillari oltoy til oilasi tarkibiga kirgan. Ular turmushi ko‘plab urug‘-qabilalar ittifoqi sharoitida kechishi sababli bir-birlariga juda yaqin lahjalarda so‘zlashganlar. Buni mo‘g‘ulchada qarindosh-urug‘ atamaları yaqqlo isbotlab



turadi. Tarixning va til taraqqiyoti bosqichining keyingi davrlarida ularning migratsion jarayonlari kuchayishi natijasida areal jihatdan alohida taraqqiy etganligi ma’lum bo’ladi.

a) rus tili orqali Ovro‘pa tillaridan o‘zlashgan birliklar:

rus tilida	o‘zbek adabiy tilida	Mingbuloq shevasida
tolko	faqat	to‘lka
poezd	poezd	poyiz
vagon	vagon	vogo‘n
vokzal	vokzal	vagzal
pochta	pochta	poshta
telefon	telefon	tilpon
adres	adres/manzil	adiris
zavod	zavod	zovit
fabrika	fabrika	pabrika
mashina	mashina	moshiyna
bank	bank	bangka
doktor	doktor	duhtir
gazeta	gazeta	gaziyta
fonar	fonar	ponor
sud	sud	sut
soldat	soldat	soldot
pechka	pechka	pechka
lampochka	chiroq	lampichka
podnos	podnos	patnis
tarelka	tarelka	tarilka
kartoshka	kartoshka	kartishka

O‘zbek shevalarining har birida ijtimoiy hayotning mustamlakachilik siyosati, sobiq Sho‘rolar hukumati qo‘l ostida turmush kechirilishining natijasi sifatida juda ko‘plab rus va Ovro‘pa tillaridan lingvistik birliklari unsurlarining kirib kelganligi, o‘zlashganligi va hozirda ham bu jarayon shiddat bilan davom etayotganligi va ular shevalarga muqim o‘rnashib qolganligi va qolayotganligi yaqqol sezilib va ko‘rinib turadi. Bugungi kunda nafaqat, o‘zbek tiliga, balki uning shevalariga ham zamonaviy texnologiyalar va elektron



axborot vositalari orqali Ovro‘pa tillaridan turli lingvistik birliklar kirib kelib, o‘rnasha bormoqda. Bunday birliklar o‘zbek adabiy tilida aynan, o‘zbek shevalarida esa fonetik o‘zgarishlarga uchragan va kalkalash holatida qo‘llanmoqda.

Xullas, o‘zbek tilining Mingbuloq shevasi lug‘at tarkibida o‘zbekcha – umumturkiy, shu bilan bir qatorda, xitoycha, fors-tojikcha, arabcha, mo‘g‘ulcha, ruscha-evropacha o‘zlashgan so‘zlarning ishlatilishi tilimizning, uning ichki manbai bo‘lgan shevalarimizning lug‘aviy jihatdan boy va murakkab jarayonlarni bosib o‘tganligini hamda tillarning o‘zaro qorishuvi – assimilyatsiyasini va konsolidatsiyasini isbotlab ko‘rsatib beradi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Mingbuloq shevasida ko‘plab o‘rganish lozim bo‘lgan lisoniy xususiyatlar mavjud. Bugungi kunda sheva arealida 136,7 ming nafar aholi o‘zining turli ifoda usullari va jilosiga ega bo‘lgan o‘zbek tilining jonli tili ko‘rinishi bo‘lgan shevalarining birida o‘zaro aloqa qilmoqdalar.

Bildirilganlardan o‘zbek shevalari tizimida Mingbuloq shevasining o‘rnini quyidagicha xulosalash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

O‘zbek shevalarini o‘rganish orqali chiqarilayotgan xulosa va to‘xtamlar, amalga oshirilgan barcha ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘zbek adabiy tilining boyishi, o‘zbek dialektologiyasi, areal lingvistikasining mukammal shakllanishi va uning nazariy asoslariga katta manba sifatida poydevor bo‘ladi va taraqqiysiga ulush qo‘shadi.

Mingbuloq shevasi materiallari ham xalqimizning etnogenetik, etnografik xususiyatlari haqida, turkiy tillararo qorishuv (metizatsiya) va turkiy xalqlar bilan turkiy bo‘lmagan etnoslarning tillari o‘rtasidagi munosabat (gibridizatsiya) holatlari asosidagi etnolingvistik jarayonlar yo‘nalishlarini asoslaydi hamda boshqa hech bir manbadan olib bo‘lmaydigan ma’lumotlarni yuzaga chiqaradi.



Adabiyotlar:

1. Rafiev A. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – Toshkent, 2004 yil. – B. 5-8 b.
2. Abdurasulov Y. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2009 yil. – B. 9.
3. Aliev A., Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan. – Toshkent: O'zbekiston, 1994. – 120 b.
4. Боровков А. К. Узбекский говоры Наманганской области // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Ташкент, 1963.
5. Yudaxin K.K. O'zbek va uyg'ur xalqlari tillaridagi yaqinlik // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. 1958. – № 1. – B. 31-35.
6. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va xalq shevalari. – Toshkent, 1962.
7. Reshetov V.V. O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. 1965. – № 5.
8. Aliev A, Sodiqov Q. O'zbek adabiy tili tarixidan – Toshkent: O'zbekiston 1994 – 120 b.
9. Гафуров Б. Истории таджикского народа. – Москва: Наука, 1952. – С. 99-110.